

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI
DAVLATLARNING HUQUQBUZARLIKLARI UCHUN JAVOBGARLIK
MASALALARI VA ULARNING INSON HUQUQLARIGA TA’SIRI

Xoljigitov Mirzoxid Murodjon o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi
xoljigitovmirzohid@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola xalqaro miqyosda davlatlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarni, ulardan kelib chiquvchi javobgarlikni va bu jarayonda inson huquqlarini ta’minlash masalalarini taqdqiq qilishga asoslangan. Tadqiqot davomida davlatlarning javobgarlikni vujudga keltiruvchi hatti-harakatlari, javobgarlik asoslari xalqaro va milliy qonun normalari asosida birma-bir tahlil qilindi. Javobgarlikni belgilash jarayonida inson huquqlariga doir qonunchilikka, xususan “Inson huquqlari bo’yicha Xalqaro Bill ¹”ga qanchalar rioya etilishi o‘rganildi. Xalqaro huquqda javobgarlik masalalarida inson huquqlarini ta’minlashdagi ba’zi bir bo’shliqlar yoxud nomuvofiqliklar amaliy misollar yordamida o‘rganildi va ularni bartaraf etish maqsadida takliflar berib o‘tildi. Ushbu holatlar bo’yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilingan.

Kalit soz’lar: Xalqaro huquqbuzarlik, inson huquqlari, davlatlarni javobgarligi, sanksiya.

ABSTRACT: This article is based on the study of violations committed by states at the international level, the responsibility arising from them and the issues of ensuring human rights in this process. During the research, actions of the states that create responsibility, bases of responsibility were analyzed one by one on the basis of international and national legal norms. In the process of determining responsibility, the extent to which the legislation on human rights, in particular the “International Bill of Human Rights” is observed, was studied. Some gaps or inconsistencies in the provision of human rights in the issues of responsibility in international law were studied with the help of practical examples and proposals were made to eliminate them. The legislation and practice of the Republic of Uzbekistan on these cases were analyzed.

Key words: International crime, human rights, responsibility of states, sanction.

I. Kirish.

Davlatlar tomonidan inson huquqlarini ta’minlash bu eng asosiy vazifa ekanligi davlatlar tomonidan qabul (ratifikatsiya) qilingan xalqaro normalarda belgilab qo’yilgan asosiy jus

¹ Inson huquqlari bo’yicha Xalqaro Bill. Inson huquqlarini ta’minlash bo’yicha xalqaro qonunchilida 5 asosiy hujjatlar tushuniladi:

- 1) Inson huquqlari umujahon deklaratsiyasi (1946); 2) Fuqarolik va siyosiy huquqlari to’g’risidagi pakt (1966); 3) Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to’g’risidagi pakt (1966); 4) Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro paktning I pakultativ bayonnomasi “Individual shikoyat huquqi” (1966); 5) Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro paktning II pakultativ bayonnomasi “O’lim jazosini bekor qilish” (1989).

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

cogens² normasidir. Imperativ normalarga to‘g‘ridan to‘g‘ri emas balki bilvosita amal qilmaslik, undan chetga chiqish yoki har qanday turdagi aylanib o‘tishlar ham inson huquqlariga nisbatan buzulish sifatida qaralishi mumkin ekanligini nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Davlatlarning huquqbuzarligi o‘zi nima? Yaqin yaqingacha davlatlar o‘zining xalqaro miqyosdagi huquqbuzarliklariga faqat qaysi davlatlar kuch, moliyaviy yoki madaniy jihatda zarar yetkazgan bo‘lsa, aynan shu davlat oldida javob bergan, bu XX asrdan oldingi vaqtlar uchun xalqaro huquq doirasida “G‘olib huquqlari” nomi bilan mashhur bo‘lgan odat normasi edi. Xalqaro huquqda davlatlarning javobgarligi masalasi va unda kelib chiquvchi oqibatlariga “Ikkinchi jahon urushi” yakunlarigacha hech bir huquq subyekti, ya‘ni davlatlar tomonidan e‘tibor qaratilmagan va tartibga solinmagan soha edi, ayniqsa ularda davlatlar tomonidan sodir etilgan huquqqa zid harakatlari uchun jismoniy shaxslar, mansabdorlar hamda uning hududida yashovchi tinch aholining huquqiy holati va manfaatlari masalasi qanday ekanligiga to‘xtalinmagan va xalqaro hujjatlar qabul qilinmagan, zero 1946-yillardan keyin inson huquqlariga e‘tibor yuksak darajaga yetgan bir vaqtda ushbu sohadagi inson huquqlarini saqlash masalasi e‘tibordan chetda qolishi hayratlanarlidir. Xalqaro huquqda davlatlar huquqbuzarligi quyidagicha tavsiflanadi. *Xalqaro huquqbuzarlik* – bu xalqaro huquq subyektlarining harakati yoki harakatsizligi bo‘lib, uning natijasida subyektlar xalqaro huquq normalari va xalqaro majburiyatlarini buzadilar, xalqaro huquqning subyektlariga moddiy yoki nomoddiy xarakterdagi ziyon yetkazadilar.³ Boshqa bir xorijlik olim Malcolm.N.Shawning tushuntirishicha, *xalqaro huquqbuzarlik* – harakat yoki harakatasizlik ko‘rinishida bo‘lgan xalqaro xatti-harakatlar xalqaro huquq muvofiq davlatga tegishli bo‘lsa va xalqaro huquq va davlatning xalqaro majburiyatlarini buzsa davlatning xalqaro huquqqa zid harakati mavjud bo‘ladi.⁴ Ushbu biz yuqorida ko‘rgan ikki ta‘rif ham aynan bir ma‘noni, ya‘ni xalqaro huquqdagi huquqbuzarliklarni anglatadi. *Xalqaro huquqda javobgarlik* esa ushbu xalqaro huquqbuzarlik yuzaga kelganda davlatlar guruhi yoki yagona davlat tomonidan qo‘llaniladigan majburlov chorasi asosida kelib chiquvchi yuridik oqibatdir.⁵ Bu o‘z navbatida bir qancha savollarni yuzaga keltiradi, “huquqbuzar davlatga qo‘llanilgan majburlov choralarni ushbu davlat aholisiga qanchalar xavf solishi yoki ularning huquqlariga daxl qilish mumkin?” yoki “davlatlarning xalqaro huquqqa zid harakatlari uchun davlatlarning tinch aholisi ham javob berishi kerakmi va agar ularning huquqlariga daxl qilgan taqdirda qanday oqibatlar kelib chiqishi mumkin?”, va ushbu savollarga javob topishimiz zarur.

II. Ilmiy-nazariy qism.

1. Davlatlarning huquqbuzarligi turlari.

² Juc cogens – xalqaro huquqning imperative normalari. Xalqaro huquq normalarining ikki toifasidan birinchisi, ularga mavjud xalqaro hujjatni qabul qilgan va qabul qilmaganligidan qat‘iy nazar barcha davlatlar birdek amal qilishi shart.

³ Saidov.A.X va boshqalar. Xalqaro ommaviy huquq. Darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2023.- 214 b.

⁴ Malcolm.N.Shaw. International law (Ninth addition). The United Kingdom Cambridge: Cambridge University Press, 2021. - 1944 p.

⁵ Mualliflar jamoasi. Xalqaro huquq. Darslik. – Toshkent.: TDYU nashriyoti, 2018. – 188-b

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Xalqaro huquqbuzarliklarni tartibga solish va ularga sanksiyalar belgilashning asosiy maqsadi insoniyat xavfsizligi, ularning huquq va erkliklarini saqlash va himoya qilishdir. Sababi, aksar davlatlar yoki hukumatlar tomondan sodir qilinadigan xalqaro huquqbuzarliklar insoniyatga qarshi qaratilgan bo‘lib, asosiy javblanuvchilar insonlardir. Ba’zi olimlarning fikrlariga ko‘ra, xalqaro huquqda davlatlarning quyidagi uch guruhdagi huquqbuzarliklari mavjud bo‘lib, ular:

- 1) Xalqaro jinoyatlar.
- 2) Xalqaro harakterdagi jinoyatlar.
- 3) Boshqa Xalqaro huquqbuzarliklar (xalqaro deliktlar).⁶

A.X.Saidovning fikriga ko‘ra esa xalqaro huquqbuzarliklar ikki turga:

- 1) xalqaro jinoyatlar
- 2) xalqaro deliktlardan

tarkib topgan degan farazlar mavjud.

Boshqa huquqshunos olim Odilqoriyevning tajribasida esa xalqaro huquqbuzlikni turlarga ajratmasdan hammasini bir xalqaro huquqbuzarliklar kabi o‘rganish amaliyoti qo‘llanilgan.

Xalqaro huquqda insoniyat uchun yuqori xavf tug‘duruvchi huquqbuzarliklar bular “xalqaro jinoyatlardir”. Xalqaro jinoyatlar insonlar uchun xavfli bo‘lgan, tinchlik va insoniyat xavfsizligini saqlash uchun ahamiyatga ega bo‘lgan norma va prinsiplarning buzulishi deb ta’riflanadi. Bunda aytilgani kabi asosan inson huquqlariga daxl qilinadi va inson huquqlari sohasidagi normalar buzulishi kuzatiladi. Ular jinoyat huquqi olimlari tomonidan bir qancha turlarga bo‘linadi:

a) Tinchlikka qarshi jinoyatlar. Bunga asosan “Agressiya” kiradim chunki agressiyaning asosiy obyekti bu davlat va insoniyat xavfsizligidir. *Agressiya* – umum e’tirof etilgan prinsip va normalarga zid ravishda davlat qurolli kuchlarini ikkinchi xalqaro huquq subyektiga qo‘llash, uning tinchligi va xavfsizligiga qarshi jinoyatlardan biri hisoblanadi. undan tashqari urushni rejalashtirish, bunday urushga yo‘l ochib berish.

b) Insoniyatga qarshi jinoyatlar. Bundan jinoyatlar tarkibiga "Genotsid" kiradi. Bunda jinoyat obyekti to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’lum bir turdagi din, irq yoki shu kabilarga asosan belgilanadigan shaxslar guruhining hayoti va xavfsizligi.

c) Harbiy jinoyatlar, unga quyidagi jinoyatlar kiradi: urush e’lon qilish yoki olib borish udumlarini buzish, harbiy asrlarni qiynoqqa solish yoki o‘dirish, jamoat mulki yoki ashyolarni ta’lon taroj qilish.

Yuqoridagi har uchala jinoyat turlarini qamrab olgan haqiqiy holat mavjud, bu Ikkinchi jahon urushi davomida Natsist Germaniyasi tomonidan qo‘llanilgan har qanday harakatlar keyinchalik Nyurnberg Jinoyat sudi tomonidan jinoyat deb topildi. Sababi Fashistik Germaniya Birinchidan qator mamlakatlarga agressiya harakatini olib borgan, uning birinchi qurbonlari Polsha va

⁶ Mualliflar jamoasi. Xalqaro huquq. Darslik. – Toshkent.: TDYU nashriyoti, 2018. – 185-b

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Belgiya davlatlari. Ikkinchidan Germaniya “Yahudiy” xalqiga nisbatan Genotsid uyushtirgan, boshqa barcha jinoyatlar bilan birga ushbu qilmish Nyurnberg sudida ko‘rilgan lekin ushbu davrda Genotsid tushunchasi mavjud bo‘lmashligiga qaramay Germaniya harbiylari yahudiy xalqini qirib tashlagani uchun javobgar bo‘lgan. Uchinchidan Germaniya urush olib borish tartibini va shartlarini buzgan, u 1939-yil 1-sentabrda Polshaga va 1941-yil 22-iyunda esa Sovet Ittifoqiga urush e‘lon qilmay to‘satdan hujum uyushtiradi va harbiy asirlarga nisbatan insoniy muomalada bo‘lmaydi, buni Nurnberg sudi inobatga olib qaror chiqargan.

Xalqaro harakterdagi jinoyatlar – bir qancha yoki barcha davlatlarning manfaatlariga tajovuz qiladigan, keng miqyosdagi xavfni keltirib chiqaradigan qilmishdir. Quyidagilarni xalqaro harakterdagi jinoyat deb olishimiz mumkin: qulchilik, odam savdosi, terrorizm va boshqalar. Xalqaro harakterdagi jinoyatlarning xalqaro jinoyatlardan farqi jihati, ushbu jinoyatlar ham xalqaro huquqning belgilangan normalariga zid bo‘lgan taqdirda ham u xavf tug‘dirish mumkin bo‘lgan subyektlar soni cheklangan doira bo‘lganligidir.

Uchunchi xalqaro huquqbuzarlik bu – *boshqa xalqaro huquqbuzarliklar (xalqaro deliktlar)* deb nomalanadi. *Xalqaro deliktlar* – xalqaro huquq subyektlariga cheklangan doirada zarar yetkazish. Ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlatga tegishli bo‘lgan huquqbuzarlik turi bo‘lib, asosan javobgarlik masalasi shaxsga emas balki butun boshli davlatga nisbatan qo‘llaniladi. Unda misol qilib, diplomatik vakillarning noqonuniy harakatlari yoxud savdo majburiyatlarini buzish kiradi, ushbu huquqbuzarlikda g‘arazgo‘ylik kabi subyektiv tomoni bo‘lmashda, bunday harakatlar davlatlar oldida xalqaro huquqiy javobgarlik keltirib chiqaradi.

2. Xalqaro huquqbuzarlik uchun javobgarlik.

Ko‘plab huquqshunos olimlar tomonidan davlatlar tomonidan sodir etilgan xalqaro huquqbuzarliklar uchun turlicha majburlov choralari mavjudligini takidlashadi. Huquqshunos Saidovning fikrlariga ko‘ra xalqaro huquqbuzarlik uchun javobgarlik ikki turga bo‘linadi: siyosiy va moddiy. Ushbu turlarga bo‘linishi huquqbuzarlik sodir etgan davlatga tas‘ir ko‘rsatish omili sifatida qaraladi. *Siyosiy javobgarlik* – huquqbuzar davlatga nisbatan qo‘llaniladigan majburlov chorasi bo‘lib “*Sanktsiyalar*”da ifodalanadi. *Sanktsiya* – bu xalqaro huquqbuzarlikni sodir etgan davlatga nisbatan Xalqaro tashkilotlar, davlatlar guruhi yoki alohida davlatlar tomonidan qo‘llaniladigan choralardir. Ular huquqbuzarlikning og‘ir yoki yengilligiga qarab bir qancha shakilda bo‘lishi mumkin. *Okkupatsiya* yoki *anneksiya* harakatlarini amalga oshirgan davlatga nisbatan harbiylarni harbir kuchlarni yoki qurollarni qisqartirish yoki ularni taqiqlash kabi chora qo‘llanilishi mumkin, misol sifatida Ikkinchi jahon urushida Militaristik Yaponiya mag‘lubiyatga uchragandan so‘ng, Tokio sudining qaroriga ko‘ra Yaponiyaga armiya va qurol saqlash taqiqlandi, qurollar esa olib qo‘yildi, bu ham bir javobgarlikni ko‘rinishi. Siyosiy javobgarlik ba’zi sanktsiyalarda moddiy javobgarlik bilan ham kesishadi. Ulardan bir turi, davlatlar tomonida xalqaro huquq normalariga rioya qilmaganlik uchun “*Iqtisodiy sanktsiyalar*” ham ko‘zda tutilgan. Sanktsiyalarning har qanday turlari huquqbuzarlik og‘irligi va zarar doirasiga qarab qarshi (jabrlangan) dalatlar tomonidan

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

qo‘llaniladi. Asosan hozirda davlatlar huquqbuzarligi uchun BMT nizomining 39, 41 va 42-moddalariga asosan Xavfsizlik Kengashi vakolatli hisoblanadi. *Moddiy javobgarlik* esa aytilganidek davlatlarga yetkazilgan moddiy zarar uchun javobgar bo‘ladi va zararni qoplash bilan bog‘liq javobgarlikda boshqa oqibat kelib chiqmaydi. Olimlar Odilqoriyev va Ochilovning fikrlariga ko‘ra moddiy javobgarlik ham o‘z navbatida turlarga bo‘linadi. Bular:

1) Restitutsiya – urushayotgan davlat hududidan olib chiqib keltirilgan mol-mulklarni o‘z aslidek qaytarish.

2) Substitutsiya – xalqaro huquqqa zid holda yo‘q qilingan bino, mulk transport yoki hokazolarni o‘rini qoplash.

3) Reparatsiya – moddiy zararni o‘rnini qoplash.⁷

Shu joyda noaniqlikni kuzatish mumkin, Repartasiya va substitutsiya deyarli bir xil ya’ni tup ma’nosi keltirilgan moddiy zararni qoplash. Chunki tegishli xalqaro huquqqa zid ravishda yo‘q qilingan bino yoki shu kabilar moddiy zarar deb hisoblanadi. Unda nima uchun ular alohida keltirilgan? Bu ikki tushunchaning farqli jihati shundaki ular reparatsiya faqat pul ko‘rinishida bo‘lishi mumkin, lekin substitutsiya nafaqat pul balki ushbu pul miqdoriga teng bo‘lgan boshqa mulkni berish bilan ham to‘lanishi mumkiligidir. Yuqorida aytib o‘tilgan javobgarlik turlari asosan xalqaro jinoyatlar va xalqaro harakterdagi jinoyatlarga nisbatan qo‘llaniladi, lekin Yo‘ldoshevaning fikriga ko‘ra xalqaro deliklar uchun esa alohida javobgarlik turlari mavjud. Bular:

- a) Repressaliya
- b) Satisfaksiya
- c) Restoratsiya
- d) Retorsiya⁸

Ushbu javobgarlik turlari sanktsiyalar kabi huquqiy oqibatlar keltirib chiqarmaydi ammo, tegishli ikki yoki bir guruh davlatlar oldida javobgarlikni istisno etmaydi, bunday turdagi javobgarliklar odatda bir davlatning ikkinchi davlatga qilgan nodo‘stona harakati yoki shartnoma shartlarini bajarmaganligidan kelib chiuvchi uncha katta bo‘lmagan zarardan paydo bo‘luvchi kelishmovchilik sharoitida qo‘llaniladi. Ba’zan esa ushbu javobgarlik turi asosiy javobgarlikka qo‘shimcha qilib belgilanishi mumkin. misol sifatida 1947-yilda Italiya va Yaponiya davlatlari Ikkinchi jahon urushidan keyin tegishli agressiya va noqonuniy okkupatsiyalarga berilgan javobgarlikda tashqari keltirgan ziyonlari uchun satisfaksiya sifatida jahon hamjamiyatidan rasmiy uzur so‘ragan.

3. Huquqbuzar davlatlarning javobgarligi jarayonida inson huquqlari.

Biz sanab o‘tgan aksar xalqaro huquqbuzarliklarda subyektlar tegishli hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslardir, davlat tomonidan genotsid, agressiya yoki shu kabi

⁷ Xalqaro ommaviy huquq: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik / Odilqoriyev X.T., Ochilov B.E.; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Toshkent davlat yurisik institute. – Toshkent: Adolat, 2007. – 232-233-b

⁸ Xalqato huquq. Mas’ul muharrir y.f.n., prof G.Yuldasheva //Mualliflar jamosi. – T.: TDYU nashriyoti, 2018. – 201-b

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

jinoyatlarni amalga oshirish hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan shaxs yoki shaxslar guruhining qarori asosida qo'llaniladi. Shu sababli jinoyatda javobgarlar davlat emas balki jismoniy shaxslar sud qilinadi. Undan tashqari sudning qarori asosida ushbu agressiya yoki genotsid qo'llagan davlatga nisbatan ham reparatsiya, restitutsiya shaklidagi qo'shimcha javobgarlik choralari ilib qo'yilishi mumkin. Biroq xalqaro harakterdagi jinoyatlarda faqat jismoniy shaxs javobgardir. Ushbu javobagarlikning aniqlash va ularning javobgarlikka tortish jarayonida ham ular to'liq o'zlariga xalqaro huquq normalari asosida tegishli bo'lgan huquqlarida foydalanadilar va ularning ishlari xalqaro Tribunallarda ko'riladi. Ushbu huquqlar “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da keltirilgan, xususan ushbu deklaratsiya 9-moddasi “hech kim asossiz qamalishi yoki surgun qilinishi mumkin emas” va 11-moddasi “Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir inson himoya uchun barcha imkoniyatlar ta'minlangan holda, ochiq sud majlisi yo'li bilan uning aybi qonuniy tartibda aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishga haqlidir. Hech kim, sodir etilgan vaqtda milliy qonunlar yoki xalqaro huquqlarga ko'ra jinoyat deb topilmagan xatti-harakati yoki faoliyatsizligi uchun jazoga hukm qilinishi mumkin emas. Shuningdek, jinoyat sodir etilgan vaqtda qo'llanishi mumkin bo'lgan jazoga nisbatan og'irroq jazo berilishi mumkin emas.” kabi moddalarga asoslangan huquqlardan foydalanadilar.⁹ Shunday javobagarlik turlari mavjudki, bunda nafaqat davlat balki uning tarkibidagi jismoniy va yuridik shaxslarga va ularning huquqlariga ham to'g'ridan to'g'ri zarar yetkaziladi. Ulardan biri bu huquqbuzar davlatga boshqa davlat yoki ularning guruhi va xalqaro tashkilotlar tomonidan “*Iqtisodiy sanksiya*” qo'llanilishi. “*Iqtisodiy sanksiya*”ning ayni mohiyati va maqsadi quyidagicha, Iqtisodiy sanksiya huquqbuzarlik sodir etgan davlatga boshqa hukumatlar tomonidan uning harakatalarida noroziligini bildirgan holatda u bilan har qanday savdo-sotiq qilishni taqiqlashda ifodalanadi, bunda ko'zlangan asosiy maqsad ushbu davlatni bu huquqbuzarlikdan qaytarish yoki oldini olish. Bunday iqtisodiy yoki boshqa turdagi sanksiyalarni qo'llash har bir davlat yoki xalqaro tashkilotdagi a'zolar tomonidan qo'llanilishi mumkin, misol sifatida BMT nizomining 41-moddasiga asosan Xavfsizlik Kengashi tomonidan qurolli kuchlarini qo'llash bilan bog'liq bo'lmagan iqtisodiy yoki boshqa turdagi munosabatlarni uzish bilan bog'liq majburlov chorasi qo'llash haqida aytilgan, bunda ayni iqtisodiy sohadagi aloqalarni uzish bu “*Iqtisodiy sanksiya*”dir, uning ko'rinishi turlicha bo'lishi mumkin, iqtisodiy sanksiya ayni bir manbaga nisbatan yoki butun boshli iqtisodiy munosabatga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Biroq hech bir nazariy kitob yoki amaliyot ushbu sanksiya turining muvaffaqiyati haqida ma'lumot bermagan, chunki ikki davlatda o'rtasida savdo-alloqalarni uzulishi nafaqat sanksiya qo'llangan balki uni qo'llagan davlatga ham ko'p qilinichiliklar keltirib chiqaradi, bu “o'z oyog'iga bolta urishda boshqa narsa emas”, shuni ta'kidlash kerakki, ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy sanksiya uning hududidagi aholining iqtisodiy va boshqa

⁹ Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” // Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi rasmiy veb sayti -

https://www.ohchr.org/sites/default/files/UDHR/Documents/UDHR_Translations/uzb.pdf

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

huquqlariga o‘z ta’siri o‘tkazmay qolmaydi. Birinchidan sanksiya qo‘llangan davlatda tegishli maxsulotlar yoki xizmatlar yetishmasligi yoki ularning narxining ortishi bu shu yerli aholiga katta qiyinchilikni keltirib chiqaradi. Har bir shaxs o‘zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta’nilash uchun zarur bo‘lgan turmush darajasiga ega bo‘lish huquqlariga egadir¹⁰ va ushbu sharoitni ta’minlab berish davlatning zimmasida va bu uning funksiyalarida biri hisoblanadi. Shu bilan birga har bir shaxs erkin rivojlanish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy sohadagi huquqini amalga oshirish huquqlariga egadir.¹¹ Ushbu huquqlarni amala oshirish uchun bevosita iqtisodiy sanksiyalar to‘sqinlik qiladi, chunki shaxs o‘zining normal ro‘yojlanishi va tegishli maxsulotlardan bahramand bo‘lishi uchun davlatlar tomonidan qo‘llanilgan sanksiyalar yo‘l bema‘ydi. Misol uchun 1990-2003-yillardagi Iroq voqeasi. Iroqda Saddam Husayn hokimiyatga kelib xalqaro huquqqa zid harakatlari tufayli tegishli AQSH va Yevropa davlatlari iqtisodiy sanksiyalarga uchragan, ushbu sanksiya davlatga nisbatan qo‘llangan bo‘lsada, uning aholisi ko‘proq aziyat chekkan, ushbu davlatga qo‘yilgan cheklov sabab yetarlicha oziq-ovqat va dori darmon kiritilmaganligi sababli ko‘plab odamlar hayotdan ko‘z yumgan. 2000-yildagi “The Journal of the American Medical Association (JAMA)” jurnalida “Iroq sanksiyalarining jamoat salomatligiga ta’siri” nomli maqolasida tegishli sanksiyalardan keyin sog‘liq uchun kerakli dori-darmonlar va vositalarni yetishmaganligi sababli 1990-yilning o‘zida o‘limlar soni 500 000 kishiga yetganligi aytib o‘tilgan.¹² Shunidek insonlar tegishli adolatli ish sharoitida ishlar va ishsizlikda himoyalani sh huqqulari ham mavjud, iqtisodiy sanksiyalar va davlatlarni hududidagi kompaniya va firmalarni olib chiqib ketilishi ushbu hududda ish bilan ta’minlangan ko‘p sonli aholoni ishsiz qolib ketishiga sabab bo‘ladi. misol sifatida Rossia va Ukraina o‘rtasidagi mojaro asosida AQSH va Yevropa mamlakatlari tomonidan qo‘llanilgan iqtisodiy sanksiya natijasida uning hududidan bir qancha xalqaro brendlarni xususan, McDonald’s, Coca Cola, Ford, Volkswagen, Apple kabilarni chiqib ketishiga va ushbu sohada mehnat qilayotgan odamlarning ishsiz qolishiga sabab bo‘ldi. Ikkinchidan, iqtisodiy sanksiyalar nafaqat jismoniy balki savdo-sotiq, biznes bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslarga ham katta ta’sir ko‘rsatadi, chunki iqtisodiy sanksiyalar qo‘llanilishidan oldin chetki mamlakatlar bilan savdo qiluvchi firmlar sanksiya qo‘llanilgandan keyin tovarlari va xizmatlari kiritilmasligi natijasi to‘lovga layoqatsiz bo‘lib qolgan yoki uning ushbu davlatdagi franshizasi yoki filiali yopilgani asosida katta moliyaviy inqirozga uchrashi mumkin. Bu shu hududdagi normal biznes faoliyati bilan shug‘ullanishi huquqlarini cheklashdir,

¹⁰ Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” // Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi rasmiy veb sayti -

https://www.ohchr.org/sites/default/files/UDHR/Documents/UDHR_Translations/uzb.pdf

¹¹ Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” // Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi rasmiy veb sayti -

https://www.ohchr.org/sites/default/files/UDHR/Documents/UDHR_Translations/uzb.pdf

¹² Iroq: The Impact of sanctions on Public health // The Journal of the American Medical Association (JAMA) rasmiy veb sayti. - <https://jamanetwork.com/journals/jama>

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

biznes erkin va uni qanday faoliyat bilan shu’ullanishi yoki uni kimlar bilan savdo qilishi yoki qilmasligi davlatlar tomonidan qo’llanilmasligi kerak, lekin iqtisodiy sanksiyadan keladigan aziyatdan biznes egalari ham chetda qolmaydi. Sababi Iqtisodiy sanksiya mohiyatidan kelib chiqib aytish kerakki, davlatlar o’zaro har qanday iqtisodiy faoliyat olib bormaydi, bunda bu sanksiyalarga butkul aloqasi yo’q bo’lgan biznes egalari ham ta’luqli bo’lishi haytarlanarli, chunki tegishli “Davlatlarning xalqaro huquqbuzarlik uchun javobgarligi” nomli 2001-yildagi konvensiyaning 50-moddasida keltirilgan normada xalqaro javobgarlik masalasi insonlarga nisbatan qilmasligi kerakligi aytib o’tilgan¹³, ammo biz buni amalda hech qanday ahamiyat kasb etmayotganligini guvohi bo’lmoqdamiz. Ikki normalar uchun kallezion holatni kelib chiqishiga zamin yaratib bermoqda. Xalqaro sanksiyalarni qo’llanilishiga yaqqol misolni O’zbekiston Respublikasi miqyosida ham ko’rishimiz mumkin. O’zbekiston Respublikasi 1992-yil Xalqaro Mehnat tashkiloti a’zo bo’lib “Mehnatni majburiy yoki majburiy mehnatni olib keladigan ishlarni taqiqlash to’g’risida”gi Konvensiyaning ratifikatsiya qilganiga qaramay, paxta terishda bolalar va boshqa shaxslarni majburan ishlashini davom ettiradi va 2013-yilda O’zbekiston paxtasini sotish XMT tomonidan qattiq iqtisodiy bosimlarga uchradi, O’zbekiston paxtasi jahon hamjamiyatida boykot qilindi, bu ham bir turdagi iqtisodiy sanksiya hisoblanadi, shundan so’ng O’zbekiston majburiy paxta terishda bolalar mehnatidan vos kechdi.

Shu bilan birga bevosita insonlar huquq va erkinliklariga ta’sir etuvchi javobgarlik shakillaridan biri bu xalqaro huquqbuzarlik sodir etgan davlat hududiga harbiy kuch qo’llash. Bunga asos BMT Nizomi 39 va 42-moddasida o’z aksini topgan. Xalqaro huquqbuzarlik sodir qilgan davlatga nisbatan harbiy choralarni qo’llash bu, xavfsizlik kengashi tomonidan qo’llanilishi kerak bo’lgan eng oxirgi chora hisoblanadi, buning uchun favqulotda kechiktirib va rad etib bo’lmas sabab kerak bo’ladi. BMT xavfsizlik kengashi tomonidan harbiy kuchlarning kiritilishining asosiy maqsadi tinchlikni saqlash bo’lgan taqdirda ham, ushbu harbiy kuchlar o’z faoliyati davomida inson huquqlari va manfaatlariga rioya qilmaydilar, ushbu harakatlari orqali xalqaro huquqda belgilangan bir qancha inson huquqlarini buzadilar, shunidek urush vaqtlarda davlatlar inson huquqlarining bir qismi hisoblangan xalqaro gumanitar huquqqa ham rioya qilishlari talab etiladi. Bir davlat hududiga bostirib kirish va tinch aholiga ziyon yetkazishni xavfsizlik deb ro’kach qilish mumkin emas. Biroq insoniyat xavfsizligini saqlash va xalqaro huquq normalariga rioya etishni ta’minlash maqsadida BMT tuzilganidan buyon boron marta xavfsizlik kuchlarini safarbar qilish bo’yicha amaliy harakatlarni amalga oshirmagan. Biroq tarixda o’zboshimchalik bilan bir necha marta boshqa davlatlar hududiga bostirib kirish harakatlari bo’lgan. Ulardan biri 2003-yil 20-martda AQSh, Buyuk Britaniya, Polsha va Avstraliya birlashgan qo’shini bo’lgan harbiy kuchlar, xavfsizlikni saqlash xususan “biometrik qurollar” ishlab chiqarish bilan ro’kach qilib, Saddam Husayn Prezidentligidagi (aniqrog’i diktatorligidagi) Iroq hududlariga bostirib kiradi. Hayratlanarlisi shunda iboratki, ushbu bostirib

¹³ Responsibility of the states for internationally wrongful acts // Official web site of UN - https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/draft_articles/9_6_2001.pdf

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

kirishni BMT Xavssizlik kengashi hech qachon tan olinmagan. Shunidek ushbu bostirib kirish Iroq hukumatiga ancha zarar yetkazgan, AQShning Iroqda bioqurol borligini tasdiqlovchi dalillar o‘zini tasdig‘ini topmagach, jahon hamjamiyati AQSH tomonidan amalga oshirilgan harbiy harakatlarni agressiya harakati deb hisoblagan ammo, uni AQSH davlatiga hech qanday javobgarlik belgilanmagan. Undan tashqari u ushbu bostirib kirishda inson huquqlari va gumanitar huquq qoidalariga rioya qilmagan, va ularni qo‘pol ravishda buzgan, Birgina 20-mart kunda AQSH tomonidan Iroq hududiga bostirib kirishda “Human Rights Watch” ning “Iroq Reports”da urush oqibatlarida 100 000 dan ortiq begunoh odamlar vafot etganligi keltirilgan. Turli manbalarda raqamlar turli ko‘rinishda keladi “Iraq body Count” saytini aytishicha ushbu kunda 300 000 mingdan ortiq Iroqlik hayotni tark etgani aytiladi. Bu harbiy harakatlar iroqliklarni “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da belgilangan eng muhim huquqlarini buzgan. Misol uchun: ushbu deklaratsiya 3-moddaga, yashash va shaxsiy daxlsizlik huquqi. 5-moddaga hech kim qiynoqqa va g‘ayrinsoniy jazoga duchor etilmasligi kerak. ushbu modda Aynan Saddam Husaynaga tegishli chunki AQSH harbiylari uni tutib, hech qanday xalqaro huquq talabiga javob bermaydigan sudlarsiz dorga osishgan. Bu inson huquqlarini taxqilarlanishi, to‘g‘ri Saddam Husayn shavqatsiz davlat boshqaruvchisi bo‘lgan bo‘lishi mumkin ammo, u ham deklaratsiya 7-moddasi qoidalarini bo‘yicha hamma insonlar kabi o‘z huquqlaridan foydalanishi kerak edi. Shu bilan birga 10, 11, 28¹⁴ va boshqa bir qancha huquqlari buzilgan bo‘lsada, va keyinchalik ushbu harakatlarini AQSH tan olgan bo‘lsada, u va uning quroldoshlariga nisbatan hech qanday xalqaro javobgarlik choralari qo‘llanilmagan.

III. Huquqiy asoslar.

Hozirgi davrga kelib davlatlarning xalqaro huquqbuzarlik uchun javobgarligi masalasi bo‘yicha asosiy hujjat bu BMT tomonidan 2001-yilda qabul qilingan “Davlatlarning xalqaro huquqbuzarlik uchun javobgarligi” to‘g‘risidagi konventsia hisoblanadi. Ushbu konventsia davlatlarning xalqaro huquqbuzarlik uchun javobgarligi va uning inson huquqlariga qanchalar ta’siri borligini belgilab bergan. Biz yuqorida keltirib o‘tgan “xalqaro huquqbuzarlik” atamasi huquqbuzarlik ikki asosda xalqaro normalar va prinsiplarga shuningdek shartnomada belgilangan majburiyatlarga rioya qilmaslik asosida yuzaga kelishini ko‘rib o‘tdik, ushbu konventsia tegishli faqat davlat tomonidan xalqaro huquqning umumihirof etilgan norma va prinsiplariga qarshi qaratilgan har qanday huquqbuzalikni tartibga soladi, shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaslikdan kelib chiquvchi javobgarlik masalasi esa “Xalqaro shartnomalar huquqi” to‘g‘risidagi konvensiya asosida hal qilinadi. “Davlatlarning xalqaro huquqbuzarlik uchun javobgarligi” to‘g‘risidagi konventsia 1-moddasida davlatlar har bir xalqaro huquqqa

¹⁴ Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” // Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari boshqarmasi rasmiy veb sayti - https://www.ohchr.org/sites/default/files/UDHR/Documents/UDHR_Translations/uzb.pdf

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

zid harakati uchun javogor ekanligini nazarda tutadi.¹⁵ Xalqaro huquqbuzarlik sodir etgan subyektlar ushbu konventsiya ikkinchi qismida ko'rsatilgan javobgarlikka tortiladilar.¹⁶ Konventsiya ikkinchi qismida yuqorida biz ta'kidlab o'tgan deyarli barcha javobgarlik turlari aytib o'tilgan. Javobgarlik masalasi boblar asosida ikki qismga ajratilgan bo'lib ulardan uncha og'ir bo'lmagan huquqbuzarliklar uchun javobgarliklar keltirilgan misol uchun: reparatsiya, satisfaksiya va kompensatsiya va shu kabilar. Ikkinchi bobida esa xalqaro huquq normalarini jiddiy buzgan davlatlarga nisbatan quyidagicha oqibat keltirib chiqaradi: ushbu xalqaro huquq normalarni qo'pol ravishda yoki muntazam buzuvchi huquqbuzarlikni qonuniy yo'llar bilan tugatish¹⁷. Ushbu tugatish deganda huquqbuzarlikni keltirib chiqaruvchi vaziyat yoki hokimiyatni tugatish nazarda tutilmoqda ya'ni bir yuqorida keltirib o'tgan davlat hududiga harbiy kuchlarni kiritish hisoblanadi. Unga binoan tegishli tinchlik va xavfsizlikni saqlash maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi o'zining qurolli kuchlaridan foydalanishi mumkin.¹⁸ Konventsiyada yana ushbu konventsiyasi biron bir normasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti nizomiga nomuvofiq kelmasligi keltrilgan. Shunday qilib, biz davatlarning huquqbuzarligi uchun oqibatlarni ko'rib o'tdik, endi esa ushbu javobgarlik inson huquqlariga qanchalar ta'sir qilishni huquqiy asoslar misolida ko'rib o'tsak, "Davlatlarning xalqaro huquqbuzarlik uchun javobgarligi" to'g'risidagi konventsiyaning 33-moddasida "konventsiya bo'yicha huquqbuzar davlatga javobgarlikdan kelib chiqadigan davlatlardan tashqari har qanday jismoniy yoki yuridik shaxsga to'g'ridan-to'g'ri kelib chiqishi mumkin bo'lgan har qanday huquqlariga zarar yetkazmaydi" deyilgan, ya'ni davlatga qo'llanilgan javobgarlik choralari insonlar huquqlarini buzmasligi kerakli, biroq hayotiy haqiqatlardan kelib chiqadigan bo'lsak, davlatlarga nisbatan qo'llaniladigan sanksiya yoki boshqacha turdagi oqibatlar to'g'ridan to'g'ri bo'lmasada lekin ushbu davlat hududida istiqomat qiluvchi insonlarga ta'sir qilmay qolmaydi. Ulardan misol sifatida iqtisodiy sanksiya va davlat tomonidan harbiy kuch qo'llashni ko'rib o'tdik. Bu tegishli sohani tartibga solishni ta'minlovchi hujjatni chuqur o'ylab ko'rilmay, ya'ni ushbu qo'llanilishi mumkin bo'lgan javobgarlik shakillari inson huquqlariga zetkazishi mumkin bo'lgan ziyonlarni nazardan chetdan qoldirganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu chetda qoldirish bir qancha xalqaro hujjatlarni to'g'ridan-to'g'ri bo'lmasada, bilvosita zid kelishiga olib kelmoqda. "Inson huquqlari bo'yicha Bill" qoidalari va "Davlatlarning xalqaro huquqbuzarlik uchun javobgarligi" to'g'risidagi konventsiyadagi normalardan kelib chiquvchi oqibatlar o'rtasida kollizion vaziyatni yuzaga keltirayotgani kuzatilmoqda. Inson huquqlari umumjahon

¹⁵ Responsibility of the states for internationally wrongful acts // Official web site of UN - https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/draft_articles/9_6_2001.pdf

¹⁶ Responsibility of the states for internationally wrongful acts // Official web site of UN - https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/draft_articles/9_6_2001.pdf

¹⁷ Responsibility of the states for internationally wrongful acts // Official web site of UN - https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/draft_articles/9_6_2001.pdf

¹⁸ The United Nations Charter // The official web site of the United Nations - <https://www.un.org/en/about-us/un-charter/chapter-7>

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

deklaratsiyasining bir qancha normalari, misol uchun normal sharoitda yashash va shaxsiy daxlsizlik, normal iqtisodiy rivojlanish sharoitlari bilan ta'minlanish va hokazolar, ba'zi bir jazo choralari sababli ta'minlanmay qoladi, sababi ularni ta'minlash davlatning funksiyasi hisoblanadi, biz misol qilib keltirgan iqtisodiy sanksiya yoki harbiy kuch qo'llash bo'yicha holatlarda davlat o'z funksiyasini amalga oshirishni cheklanishi to'g'ridan to'g'ri inson huquqlarini ta'minlashda qiyinchiliklarni yuzaga keltirish amaliy misollar bilan aniqlangan. O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik normalarida ham ba'zi bir xalqaro huquqbuzarliklar uchun javobgarlik mavjud, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining (keying o'rinlarda Jinoyat kodeksi) Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar bobida keltirilgan jinoyatlar Agressiya (Jinoyat kodeksi 151-modda), Urushning qonun va udumlarini buzish (Jinoyat kodeksi 152-modda), Genotsid (153-modda), Terrorizm (Jinoyat kodeksi 155-modda). Ushbu jinoyatlar xalqaro jinoyatlar va xalqaro xarakterdagi jinoyatlar hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqbuzarlik uchun javobgarlik asoslarini ko'plab davlatlar singari o'zining milliy qonunchiligiga kiritgan. Ushbu jinoyatlar bob nomi kabi tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar hisoblanadi va O'zbekiston jinoyat nazariyasi bo'yicha o'ta og'ir jinoyatlar sirasiga kiradi.

IV. Inson huquqlari bo'yicha Sud va vakolatli organlari amaliyoti.

Ushbu mavzuga aloqador bir qancha holatlar mavjud bo'lib ulardan biri bu BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan Iroqqa qo'llanilgan 1990-2003-yillardagi sanksiyalar edi, ushbu sanksiyalarning asosiy maqsadi aslida Iroq hukumatini xalqaro huquqbuzarligi uchun jazolash edi, ayniqsa ushbu sanksiyalar Iroq Quvayt yerlariga bostirib kirgandan so'ng kuchayadi. Biroq ushbu sanksiya tinch aholini ham ancha tang ahvolga solib qo'yadi va bu bo'yicha bir qancha xalqaro inson huquqlari tashkilotlari tomonidan jiddiy munozaralarga sabab bo'ladi, xususan UNICEF kabi tashkilotlar sanksiya qo'lgan keyin amalga oshirgan statistikasida ko'rsatilishicha sanksiya qo'llangan 1990-yilda 2003 yilgacha bo'lgan davrda 500 000 mingdan oshiq bolalar to'yib ovqatlanmasligi, tibbiy va boshqa anjomlar yetishmasligi asosida bolalar va shu yerdagi inson huquqlarga katta zarar yetgan, bu masala bo'yicha nufuzli inson huquqlari bo'yicha agentliklar “Human Rights Watch” va “Xalqaro Amnitsiya” tashkilotlari ushbu sanksiyani qaytadan ko'rib chiqishni so'rab bir necha marta BMT ga murojaat qilishgan.

Venesuela davlatiga qo'llanilgan iqtisodiy sanksiyalar 2010-yildan buyon asosan Amerika Qo'shma Shtatlari va Yevropa Ittifoqi davlatlari tomonidan qo'llanila boshlangan va hozirda ham bu davom etmoqda. Ayniqsa bu sanksiyalar 2013-yilda Venesuelaga yangi hukumat kelganda so'ng kuchaytirildi. Bu iqtisodiy sanksiya Venesuela davlatiga iqtisodiga va gumanitar sohaga juda katta zarar yetkazmoqda, sababi Venesuela davlati jahon bozorida asosan neft sotish bilan shug'ullanadi, uni cheklanishi davlatning iqtisodiyot orqali aholini dori-darmon, oziq-ovqat va shu kabi kundalik sharoitda kerakli bo'lgan maxsulotlarni yetishmovchiligiga olib keldi. Ushbu masala bo'yicha Venesuela davlati Birlashgan Millatlar Tashkilotiga murojaat qilib ushbu sanksiyalarni yengillashtirishni so'ragan, va BMT tomonidan ushbu vaziyatda

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Venesueladagi holatni o'rganish bo'yicha ekspert Alena Douhanni tayinlaydi va u 2021-yil BMTga bergan hisobotida¹⁹ ushbu o'rganishlar asosida yahlit xulosaga keladi, uning xulosasiga ko'ra, neft, oltin va tog'-kon sanoatiga qo'yilgan tarmoq sanksiyalari, iqtisodiy blokada, markaziy bank aktivlarini muzlatish shunidek, Venesuela fuqarolari va xorijiy davlat fuqarolari va kompaniyalariga qo'yilgan sanksiyalari, banklar va o'zga davlat kompaniyalarining avvaldan mavjud bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy inqirozni yanada kuchaytirdi. Aholining turmush darajasiga ayniqsa, ayollar, bolalar, qariyalar, nogironlar yoki hayot uchun xavfli yoki surunkali kasalliklar va mahalliy aholiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. U inson huquqlari, demokratiya va qonun ustuvorligi yo'lida qo'yilgan bu sanksiyalarni bekor qilishni tavsiya qilgan, sababi ular o'sha tamoyillar, qadriyatlar va me'yorlarga putur yetkazayotgan edi. Inson huquqlarni ta'minlash maqsadida qo'llanilgan sanksiyalar ushbu huquqlarni buzishga xizmat qilayotganligi haqida xulosani ko'rib chiqqach BMT tomonidan Venesuelaga qaratilgan sanksiyalarni to'xtatish bo'yicha rezolyutsiya qabul qilindi va bu resolyutsiya bir qancha davlatlar tomonidan tan olingan ammo, shu kungacha AQSH va Yevropa Ittifoqi davlatlar ushbu sanksiyalar aholiga emas balki davlatga qaratilgan ekanligi va inson huquqlarini buzmayotganligini keltirmoqda. Hozirgi kunga qadar BMT Inson huquqlari kengashi tomonidan bu masala bo'yicha bir qancha o'rganishlar olib borilganligi va Venesuela davlatidagi aholini ahvoli og'ir, tegishli dori darmonlar yetishmasligi bo'yicha xulosalarni taqdim etgan, lekin hanuzgacha Venesuelaga qo'yilgan sanksiyalar yengillashtirilmagan. Venesuelaga qo'yilgan sanksiyalarning asosiy sababi, birinchidan giyohvandlik vositalarni va kontrabandasi bilan shug'ullangani va jamiyatdagi inson huquqlariga yomon muomalada bo'lgan sababli AQSH va Yevropa davlatlar tomonidan qo'llanilgan edi, ulardan birinchisi xalqaro harakterdagi huquqbuzarlik bo'lsa, ikkinchisi xalqaro delik sirasiga kiradi, bu holatda ular Venesuelaga sanksiya qo'llashga tegishli konvensiyada keltirilgan kabi to'la haqli edilar. Sababi Bu sanksiyalarni asosiy maqsadi oldin aytilgani kabi huquqbuzar davlatni huquqqa hilof faoliyat bilan shug'ullanishni yoki tegishli huquqbuzarligini to'xtatishga chaqirishdir. Ammo iqtisodiy sanksiya qo'layotgan davlatlar himoya qilinishi kerak bo'lgan inson huquqlarini, shu huquqlarni buzish orqali himoya qilish mantiqan xato ekanligini hanuzgacha tushunib yetishmadi. To'g'ri iqtisodiy sanksiyalar qaysidir ma'noda davlatlarni xalqaro huquqbuzarlikni oldini olishda samaralidir misol uchun Venesuelaga sanksiya qo'llanilganidan so'ng katta miqdordagi giyohvandlik vositalari savdosiga chek qo'yilgan bo'lsada, keyinchalik ushbu sanksiyani miqdorini va qamrovini oshirish huddi “oshqozon og'riganda shifo bo'luvchi bitta emas, bir qancha dori ichib, natijada zaharlanishga o'xshaydi”, shu asosda ortiqcha qo'llanilgan javobgarlik ham huquqbuzarlikni oldini olish o'rniga undanda yomonroq oqibat vujudga kelishiga zamin yaratadi.

V. Xulosa.

Davlatlarni sodir etgan qilmishlariga yarasha javobgarlikka tortish asosiy ikki maqsadni ko'zlaydi, birinchidan shu qilmish tomonidan xavf solinayotgan sohani himoya qilish, ikkinchidan huquqbuzarlik sodir etgan davlatni bundan huquqbuzarlik qilishdan, shu bilan birga kelgusida ham shunday harakatlarni sodir etishdan o'zini tiyilishini ta'minlashdir. Shuningdek ushbu qo'llangan javobgarlik masalasi bir qancha xalqaro standart va insoniy meyorlarda

¹⁹ Visit to the Bolivarian Republic of Venezuela: report of the Special Rapporteur on the Negative Impact of Unilateral Coercive Measures on the Enjoyment of Human Rights, Alena Douhan // The United Nations digital library - <https://digitallibrary.un.org/record/3946822?v=pdf#files>

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

bo‘lishi talab etiladi. Bunday chegaralardan chetga chiqish yoki ularni mensimaslik, huquqbuzar davlat bilan birgalikda javobgarlik vositalarni qo‘llagan davlatlar yoxud xalqaro tashkilotlarga nisbatan ham javobgarlikni yuzaga keltirib chiqarish shubhasiz. Shu sababdan xalqaro sudlar hatti harakatlarni odilona baholasinlar, davlatlar va xalqaro hukumatlararo tashkilotlar esa tegishli javobgarlik shakillaridan foydalanayotganda ma’lum chegarani saqlashlari lozim, zero ushbu harakatlari undanda ko‘proq jinoyatlarni sodir etilishiga zamin yaratmasin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Saidov, A. X., & Boshqalar. (2023). Xalqaro ommaviy huquq: Darslik. TDYU nashriyoti.
- 2) Shaw, M. N. (2021). International law (9th ed.). Cambridge University Press.
- 3) **Mualliflar jamoasi.** (2018). *Xalqaro huquq: Darslik*. TDYU nashriyoti.
- 4) **Odilqoriyev, X. T., & Ochilov, B. E.** (2007). *Xalqaro ommaviy huquq: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik*. Adolat
- 5) Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (1948). Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
- 6) Iroq: The impact of sanctions on public health. (n.d.). The Journal of the American Medical Association (JAMA). <https://jamanetwork.com/journals/jama>
- 7) United Nations. (2001). Responsibility of the states for internationally wrongful acts.
- 8) Prof. Eric Wyler and León Castellanos-Jankiewicz (2010) State Responsibility and International Crimes.
- 9) United Nations. (1946). The United Nations Charter.
- 10) Douhan, A. (2021). Visit to the Bolivarian Republic of Venezuela: Report of the Special Rapporteur on the Negative Impact of Unilateral Coercive Measures on the Enjoyment of Human Rights. The United Nations Digital Library. <https://digitallibrary.un.org/>
- 11) Ramon Das (n.d.) Human rights and economical sanction in Iraq. ACADEMIA. https://www.academia.edu/11343436/Human_Rights_and_Economic_Sanctions_in_Iraq

MAHMUDXO`JA BEHBUDIYNING ADABIY MEROSI.

Turniyoza Sarvinoz Sobirjonovna

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti talabasi

Qahhorova M.L

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti o‘qituvchisi,

Annotatsiya: Ushbu maqola Behbudiy (asli ismi Mahmud bin Muhammad al-Bukhari)-òzbek adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri bòlib,uning asarlari XX asrning boshlarida adabiy muhiti va madaniy rivojlanishiga katta ta'sir kòrsatgan.U òz vaqtida òzbek xalqining milliy gururi,ma'naviyati,ta'limi va ilm-faniga oid bir qator muhim asarlar yaratgan.Behbudiy nafaqat adabiyotda,balki òz zamonasining siyosiy,ijtimoiy va ma'rifiy hayotida ham muhim rol òynagan shaxs sifatida tanilgan.